

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
28 sahifa, avgust, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	



TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI: FALSAFIY- IQTISODIY VA IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK TAHLIL

Rajabov Sirojiddin Mansurovich

AT Biznesni Rivojlantirish Banki

Buxoro viloyati kichik biznesga ko'maklashish markazi direktori

Elektron pochta: sirojiddin.rajabov1985@gmail.com

ORCID: 0009-0003-3011-8093



Annotatsiya: Jahon miqyosida iqtisodiy erkinlik g'oyalari hamda jamiyatning iqtisodiy hayotini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi qarashlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada iqtisodiy erkinlikni ta'minlovchi asosiy subyekt — tadbirkorlik tushunchasi falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan kompleks yondashuv asosida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda XVII asrdan boshlab inson erkinligi, mulk huquqi, iqtisodiy mustaqillik, shaxsiy tashabbus va bozor munosabatlari bilan bog'liq falsafiy g'oyalarning tadbirkorlik konsepsiyasining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ochib beriladi. Mashhur iqtisodchi olimlarning tadbirkorlikka oid nazariyalari tahlil qilinadi hamda tadbirkor shaxsining iqtisodiy tizimdagi funksiyalari, risk va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishi, innovatsiyaga asoslangan faoliyat yuritishi kabi jihatlar ilmiy asosda yoritiladi. "Ijodiy vayronkorlik", "bozor ogohliligi" va "yutuqqa intilish" nazariyalari asosida tadbirkorning ijtimoiy-psixologik portreti tahlil qilinib, uning muvaffaqiyati jamiyatdagi qadriyatlar, psixologik motivatsiya, ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liqligi asoslanadi. Maqola yakunida tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy foyda olish vositasi, balki shaxsiy o'sish, jamiyatda erkinlik va farovonlikni ta'minlaydigan omil sifatida talqin etiladi. Shu asosda tadbirkorlik fenomeni chuqur falsafiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-psixologik zaminlarga ega bo'lgan murakkab va ko'p qirrali tushuncha ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, iqtisodiy erkinlik, shaxsiy tashabbus, innovatsiya, risk va noaniqlik, ijodiy vayronkorlik, bozor ogohliligi, yutuqqa intilish, psixologik motivatsiya.

Abstract: Scientific research is conducted all over the world to develop ideas of economic freedom and concepts that contribute to the stabilization of the economic life of society. The article provides a scientific analysis of the concept of entrepreneurship, which is understood as a person capable of creating economic freedom, based on an integrated approach from a philosophical, economic and socio-psychological point of view. The study shows how philosophical ideas related to human freedom, property rights, economic independence, personal initiative and market relations have influenced the formation of the concept of entrepreneurship since the 17th century. The theories of famous economists about entrepreneurship are analyzed, and such aspects as the tasks of an entrepreneur in the economic system, his behavior associated with decision-making under risk and uncertainty, his innovative activity are analyzed on a scientific basis. Based on the theories of "creative destruction", "market awareness" and "striving for success", the socio-psychological portrait of an entrepreneur is analyzed and it is scientifically proven that the success of entrepreneurial activity is closely related to values, psychological motivation, social environment and the education system in society. At the end of the article, entrepreneurship is interpreted not only as a means of obtaining economic profit, but also as a factor that ensures personal growth, freedom and prosperity in society. On this basis, it is argued that the phenomenon of entrepreneurship is a complex and multifaceted concept with deep philosophical, economic and socio-psychological foundations.

Keywords: entrepreneurship, economic freedom, personal initiative, innovation, risk and uncertainty, creative destruction, market awareness, striving for achievement, psychological motivation.

Аннотация: Во всем мире проводятся научные исследования с целью разработки идей экономической свободы и концепций, способствующих стабилизации экономической жизни общества. В статье дается научный анализ понятия предпринимательства, под которым понимается личность, способная создавать экономическую свободу, на основе комплексного подхода с философско-экономической и социально-психологической точки зрения. Исследование показывает, как философские идеи, связанные со свободой человека, правами собственности, экономической независимостью, личной инициативой и рыночными отношениями, влияли на формирование концепции предпринимательства с XVII века. Анализируются теории известных экономистов о предпринимательстве, а также на научной основе анализируются такие аспекты, как задачи предпринимателя в экономической системе, его поведение, связанное с принятием решений в условиях риска и неопределенности, его инновационная деятельность. На основе теорий «творческого разрушения», «рыночной осведомленности» и «стремления к успеху» проанализирован социально-психологический портрет предпринимателя и научно доказано, что успешность предпринимательской деятельности тесно связана с ценностями, психологической мотивацией, социальной средой и системой образования в обществе. В конце статьи предпринимательство трактуется не только как средство получения экономической прибыли, но и как фактор, обеспечивающий личностный рост, свободу и процветание в обществе. На этой основе утверждается, что феномен предпринимательства представляет собой сложное и многогранное понятие, имеющее глубокие философские, экономические и социально-психологические основы.

Ключевые слова: предпринимательство, экономическая свобода, личная инициатива, инновации, риск и неопределенность, творческое разрушение, рыночная осведомленность, стремление к достижениям, психологическая мотивация.

KIRISH

Raqamli iqtisodiy muhitda jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida erkin bozor va shaxsning iqtisodiy erkinligi tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy erkinlik g'oyalari inson erkinligi, mulkiy mustaqillik va erkin bozor mexanizmlarining samaradorligi ta'minlanganligini belgilovchi me'yorga aylanib bormoqda. Iqtisodiy erkinlik nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki umuman ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashi isbotlangan bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy erkinlikni ro'yobga chiqarish vositasi ekanligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Dunyoning ko'zga ko'ringan tashkilotlari hisoblangan UNDP, OSCE va Erasmus+ kabi o'nlab muassasalar, Angliyaning ESRC, British Academy, Innovate UK, AQSHning NSF, Kauffman Foundation, Ford Foundation, Xitoyning NSFC, CASS, MOST, Rossiyaning Ilmiy fondi va Yuqori iqtisod maktabi kabi yuzlab ilmiy tadqiqot markazlarida tadbirkorlik faoliyatini tadqiq etishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Erkin bozor munosabatlarini ta'minlash yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun tadbirkorlikni rag'batlantirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va erkin bozor munosabatlarini chuqurlashtirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish pirovard maqsad hisoblanadi. "Tadbirkorlikni rivojlantirish biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha – barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart!"

Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik fenomenini chuqur va tizimli tahlil qilish zarurati yuzaga chiqib, uning falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik asoslarini tadqiq qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalaga aylandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik tushunchasining nazariy-intellektual asoslari XVII–XVIII asrlarda shakllangan erkinlik, xususiylar mulk va shaxsiylar tashabbusga oid falsafiy qarashlarga borib taqaladi. Ayniqsa, ingliz faylasufi Jon Lokning "Inson aqli haqida izlanishlar" hamda "Hokimiyat haqida ikki risola" asarlarida mulk huquqi va inson erkinligi bir-biridan ajralmas ijtimoiy tabiiylar huquqlar sifatida talqin qilinadi. Lok nazariyasiga ko'ra, davlatning asosiy vazifasi – fuqaroning hayoti, erkinligi va mol-mulkini himoya qilishdan iborat bo'lib, bu g'oya zamonaviylar tadbirkorlik erkinligining huquqiy-ilmiylar asoslaridan biri hisoblanadi.

Niderlandiyalik faylasuf Benedikt Spinoza (1632–1677) insonning erkin harakat qilishi va ongli tanlov asosida faoliyat yuritishini aqliylar erkinlik deb baholaydi. Bu esa tadbirkorning mustaqil fikrlashi, ichki motivatsiyasi va tashabbuskorlik qobiliyatiga bevosita daxldor. Gugo Grotsiy (1583–1645) esa o'zining "Urush va tinchlik huquqi haqida" nomli asarida bozor munosabatlarini tabiiylar huquq doirasida izohlaydi. Uning fikricha, insonlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, jumladan, mulk almashinuvi, shartnoma va bitimlar axloqiy va huquqiy normalarga asoslangan bo'lishi lozim.

1 Xalq so'zi gazetasi 2022-yil 21-dekabr № 272 (8334)-soni. Bunyodkor xalqimiz mustaqilligimizni mustahkamlab, barqaror taraqqiyot yo'lida dadil ildamlayveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.



Ushbu falsafiy yondashuvlar tadbirkorlikning zamonaviy talqinida ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va iqtisodiy elementlarning uzviy bog'liqligi g'oyasiga asos yaratdi. Bu yondashuvlar XIX–XX asrlardagi klassik iqtisodiy nazariyalar, erkin bozor tamoyillari va zamonaviy tadbirkorlik kontseptsiyalarining shakllanishiga mustahkam nazariy zamin bo'lib xizmat qildi.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilishda klassik va neoklassik iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan g'oya va qarashlar muhim o'rin tutadi. Jumladan, fransuz iqtisodchisi Juan Batista Say tadbirkorni ishlab chiqarishning uch asosiy omili hisoblangan yer, kapital va mehnatni samarali birlashtirib, ularni koordinatsiya qila oladigan shaxs sifatida gavdalandirgan. Ingliz iqtisodchisi Alfred Marshall esa o'zining "Principles of Economics" asarida tadbirkorlikni ishlab chiqarishning kuchi va boshqaruv qobiliyati, tashkiliy salohiyat hamda innovatsion faoliyat bilan bog'laydi. Tadbirkor bozordagi o'zgaruvchan sharoitga moslashuvchanlik ko'rsata oladigan va moddiy resurslardan samarali foydalanadigan shaxsdir.

"Risk, noaniqlik va foyda" asari muallifi Frank H. Knight o'z qarashlarida tadbirkorlikni noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishga qodir bo'lgan subyektiv faoliyat turi sifatida izohlaydi. U risk va noaniqlikni bir-biridan ajratadi: risk – ehtimollari hisoblab bo'ladigan vaziyat bo'lsa, noaniqlik – aniqlanmagan, baholash imkoniyati mavjud bo'lmagan holat sifatida qaraladi. Tadbirkor esa aynan mana shu noaniqlik sharoitida strategik qarorlar qabul qiluvchi shaxs ekanligini o'z qarashlarida asoslagan.

Avstriyalik iqtisodchi Jozef A. Shumpeter esa tadbirkorni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. U "ijodiy vayronkorlik" (creative destruction) nazariyasini ilgari surib, tadbirkorni yangi mahsulotlar, texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va bozorlar joriy etish orqali mavjud iqtisodiy tuzilmalarda uzluksiz o'zgarishlar keltirib chiqaruvchi innovator sifatida talqin etadi. Shumpeter fikricha, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy tizimdagi dinamik yangilanishlarning asosiy omili bo'lib, u iqtisodiyotni rivojlantiruvchi muhim mexanizmdir.

Tadbirkorlik haqidagi ijtimoiy-psixologik yondashuvlar David McClelland va Israel Kirzner asarlarida muhim o'rin egallaydi. McClelland tadbirkorlikni kuchli yutuqqa erishish motivatsiyasi (need for achievement) bilan bog'lab, bu sifatni shaxsning ichki psixologik ehtiyoji sifatida talqin qilsa, Kirzner esa tadbirkorni "signal va imkoniyatlarni sezuvchi hushyor agent" sifatida ko'radi hamda bozordagi nomutanosibliklarni anglab, foydali qarorlar qabul qilish qobiliyatini asosiy jihat deb biladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning nazariy-metodologik asosi sifatida falsafa, iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka tayangan holda, tadbirkorlik fenomeni chuqur ilmiy tahlil qilindi. Bu esa mavzuning mohiyatini to'laqonli anglash uchun nazariy poydevor vazifasini bajardi. Tadbirkorlik tushunchasini ilmiy o'rganishda klassik va zamonaviy nazariyalar, konseptual modellar hamda metodlar tahlil obyekti sifatida tanlandi. Jumladan, mavzuning nazariy asoslarini Jon Lok, Spinoza, Grotsiy kabi mutafakkirlarning erkinlik, mulk va inson huquqlari haqidagi g'oyalari tashkil etdi.

Shuningdek, Jean-Baptiste Say va Alfred Marshall tadbirkorni iqtisodiy tizimdagi faol ishtirokchi sifatida tavsiflagan bo'lsa, Joseph Schumpeterning "ijodiy vayronkorlik" nazariyasi, Frank Knightning noaniqlik sharoitidagi risk nazariyasi, Israel Kirznerning "bozor ogohligi" nazariyasi hamda David McClellandning "yutuqqa intilish" nazariyasi mavzuning iqtisodiy-psixologik asosini kengaytirishga xizmat qildi. Mavzuning mazmun va mohiyatini yanada boyitish maqsadida tarixiy-falsafiy, komparativ (qiyosiy), analitik va konseptual tahlil, tizimli hamda interdisipliner (ko'p fanli) yondashuv metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XVII asrdan boshlab inson erkinligi haqidagi qarash va g'oyalar, ijtimoiy-falsafiy bilimlarga qiziqish ortib bordi. Jon Lok, Benedikt Spinoza, Gugo Grotsiy, Monteskye, Volter va Jan Jak Russo kabi yuzlab olimlarning ilmiy qarash va nazariyalarida inson erkinligi masalalariga katta e'tibor qaratilib, insonning tabiiy huquqlari hisoblangan yashash, hududiy erkinlik, mulk huquqi, so'z va siyosiy erkinliklar chuqur tadqiqot doirasiga tortildi. Ushbu tadqiqotlarda aql, individual huquq, tanqidiy tafakkur va shaxsiy erkinliklarning ijtimoiy ahamiyati izohlanib, bu bilimlar Yevropa xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-madaniy qarashlarining taraqqiy etishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Ko'plab olimlar o'z falsafiy qarashlarida inson erkinligining ro'yobga chiqishi uchun, avvalo, mulkiy mustaqillik va iqtisodiy ta'minlanganlik zarur deb hisoblaganlar. Ularning fikriga ko'ra, insonning iqtisodiy jihatdan boshqalarga qaram bo'lishi uning huquqiy va siyosiy erkinliklarini to'laqonli amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ular iqtisodiy erkinlikni huquqiy erkinlikning asosi sifatida baholagan. Natijada yevropalik olimlar iqtisodiy erkinlik muammolarini tadqiq etish yo'lidan borib, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining mulkiy



mustaqilligiga xizmat qiladigan asosiy yo'nalishlar doirasida izlanishlarga kirishgan. Iqtisodiy nazariyotchilar olib borgan tadqiqotlar natijasida jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, yuksalishi va taraqqiyotini ta'minlovchi kuch, eng asosiysi esa inson erkinligini ta'minlab berishga xizmat qiladigan tadbirkor shaxsiyatini chuqur tahlil qilishga kirishildi.

Jamiyatni iqtisodiy yuksaltirishning asosi sifatida erkin bozor tamoyillari ilgari surilgan bir sharoitda, bozor munosabatlari ishtirokchilarining xususiyatlari, bozorning asosiy qonuniyatlari va iqtisodiy munosabatlarning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilg'or g'oyalar shakllandi. Jumladan, asli irlandiyalik bo'lgan Richard Kantillon umrining asosiy qismini Fransiyada o'tkazib, o'z davriga xos zamonaviy iqtisodiy qarashlar va nazariyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Uning qarashlarida tadbirkorlik tushunchasining mohiyatini ochish bilan bir qatorda, bozor iqtisodiyoti va narx munosabatlarining asosiy xususiyatlarini izohlash, pul nazariyasi, aholi va ishlab chiqarishning asosiy qonuniyatlarini tushuntirish, "ichki iqtisodiy muvozanat" g'oyasining prinsipial tamoyillarini asoslab berish maqsadi ko'zlangan.

U "tadbirkorlik" atamasini ilk bor qo'llab, ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif bergan: "Tadbirkor — bu mahsulotni ma'lum bir narxda sotish niyatida uni noaniq narxlarda ishlab chiqaruvchi yoki xarid qiluvchi shaxsdir. U doimo tavakkal ostida harakat qiladi va bozor narxlarini o'zgarishidan foyda yoki zarar ko'radi"².

Unga ko'ra, tadbirkor — bu xavf ostida ishlab, narxlar noaniqligi sharoitida foyda olishga harakat qiluvchi shaxsdir. U tadbirkorni "foyda olishni ko'zlagan, noaniq holatlarda qaror qabul qiluvchi shaxs" deb baholagan. Uning fikricha, tadbirkor foyda yoki daromadni mijozlarga ko'rsatilgan muayyan va o'ziga xos vazifalarni bajargani uchun oladi. Bu funktsiyaning o'zi esa foiz, renta yoki ish haqi ko'rinishida daromad oladigan ishlab chiqarish resurslari egalari vazifalaridan, shuningdek boshqaruv uchun maosh oladigan yollanma menejerning funktsiyasidan farq qiladi.

Bunday tushunchaga asoslanish uchun mukammal raqobat va to'liq axborot mavjudligini nazarda tutuvchi farazlardan voz kechish zarur, chunki bunday sharoitda tadbirkorlik foydasi hali yuzaga chiqmasidan avval resurslar egalari o'rtasida taqsimlanib ketgan bo'lar edi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatini noaniqlik (belgisizlik) bilan bog'lash eng tabiiy yondashuv hisoblanadi. Tadbirkor aynan shu noaniqlik yukini o'z zimmasiga oladi va shu orqali kapital egalari bu mas'uliyatdan xalos etadi.

Kantillonning g'oyalarini davom ettirgan Jean-Baptiste Say "Tadbirkor ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va ularga yo'nalish beradi. U kapital, yer va mehnatni boshqaradi, qaror qabul qiladi va riskni o'z zimmasiga oladi", degan xulosaga kelgan. Say tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini — yer, mehnat va kapitalni — uyg'unlashtirib, yangi qiymat yaratuvchi shaxs sifatida ko'radi. Unga ko'ra, tadbirkor innovatsiya va boshqaruv bilan shug'ullanadi hamda foyda olishni asosiy maqsad qilib belgilaydi³.

Tadbirkorlik haqidagi g'oya va qarashlar ichida Yozef Shumpeterning fikrlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqargan nazariyalar zamonaviy iqtisodiy bilimlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Jumladan, uning innovatsion tadbirkorlik nazariyasi — "ijodiy vayronkorlik" (creative destruction) g'oyasiga asoslanib — tadbirkorni ijtimoiy tizimdagi dinamik kuch sohibi sifatida talqin etadi. Shuningdek, uning kapitalistik munosabatlari va kapitalizm taqdiri haqidagi qarashlari hamda iqtisodiy jarayonlarga tarixiy va institutsional yondashuvi hozirgi iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda⁴.

Shumpeterning qarashlari ayniqsa raqamli iqtisodiyot, startap madaniyati va innovatsion raqobat sharoitida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilishi zamonaviy iqtisodiy siyosat va biznes strategiyalarida keng qo'llanilmoqda.

Shumpeter fikricha, tadbirkor iqtisodiy tizimda innovatsiyalar joriy etish orqali dinamik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. U yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor, yangi xomashyo manbai yoki yangi sanoat tuzilmasini yaratib, bozor munosabatlarini harakatga keltiruvchi yangi kombinatsiyalarga asos soladi. Tadbirkor innovatsiya yaratadigan shaxs bo'lib, "ijodiy vayronkorlik" xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Uning innovatsion g'oyalari mavjud tizimlarni yangilariga almashtirib, iqtisodiy jarayonlarni jadallashtiradi va taraqqiyotni yuzaga keltiradi.

Tadbirkor yangi mahsulot, ishlab chiqarishning yangi usuli, yangi bozor, yangi xomashyo manbai yoki sanoat tashkilotining yangi shaklini joriy etish qobiliyatiga ega bo'lib, uning yangiliklari eskirgan texnologiyalar, firmalar va g'oyalarni bozor maydonidan siqib chiqaradi. Tadbirkorning bozordagi iqtisodiy muvozanatni buzishi natijasida yangi iqtisodiy rivojlanish bosqichi boshlanadi va u bozorning dinamik kuchiga aylanadi. Kapitalizm taraqqiyoti haqida fikr yuritarkan, Shumpeter kapitalizm o'z muvaffaqiyati tufayli o'zini yemiradi, deb his-

2 Cantillon, Richard. "Essai sur la nature du commerce en general". (H. Higgs, Trans.). London: Macmillan. 1931. Part One, Chapter 13.-P. 56–57.

3 Say, J.-B. (1880). A Treatise on Political Economy (C. R. Prinsep, Trans.; 4th American ed.). Philadelphia: Grigg & Elliot. P. 76-77.

4 Shumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development (R. Opie, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press. -P. 66-69.



oblaydi. Buning sabablari sifatida u byurokratiya, davlat aralashuvining ortishi va ijtimoiy ongda o'zgarishlarni ko'rsatadi. Shu sababli, Shumpeterga ko'ra, iqtisodiy tizimlar vaqt o'tishi bilan doimiy o'zgarishga muhtoj bo'ladi. Ushbu ehtiyojni esa tadbirkorning yangi g'oyalari, faoliyati va qarorlari qondira oladi.

Risk va noaniqlik nazariyasi asoschisi Frank H. Knight tadbirkorni iqtisodiy munosabatlarda noaniqlikni qabul qiluvchi va riskni foyda olish maqsadida o'z zimmasiga oluvchi shaxs sifatida ko'radi. Uning fikricha, "foyda" — bu risk uchun beriladigan mukofot bo'lib, iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisining noma'lum sharoitdagi harakatlari uchun taqdim etiladi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, daromad bilan xarajat o'rtasidagi farq foydani tashkil etadi. Tadbirkor esa bozor noaniqligi, narx tebranishi, xaridorgirlik darajasi, texnologik o'zgarishlar kabi omillar bilan bog'liq tavakkalni o'z zimmasiga olganligi uchun foyda oladi. Bozor munosabatlarida tadbirkorning harakatlari tavakkalga asoslanadi, natijasi esa oldindan noma'lum va kafolatlanmagan bo'ladi⁵.

Tadbirkor loyihasining muvaffaqiyatli bo'lish yoki bo'lmasligi ehtimoli nonga teng bo'lishi mumkin. Shu sababli tadbirkor noaniqlik sharoitida qaror qabul qiladi va resurslarni safarbar etadi. Agar uning harakatlari muvaffaqiyatga erishsa, u foyda ko'rinishida kompensatsiya olishga haqli bo'ladi. Xullas, foyda — bu bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy xavf-xatarni qabul qilgan, resurslarni boshqargan va tegishli qarorlarni qabul qilgan tadbirkorga beriladigan kompensatsiyadir. Tadbirkorning tashabbusi va javobgarligi evaziga olingan foyda — bu moddiy daromad, iqtisodiy innovatsiyalar va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi.

Amerikalik iqtisodchi olim Israel Kirzner tadbirkorlik tushunchasiga ta'rif berar ekan, tadbirkorni bozordagi imkoniyatlarni anglab, ulardan foyda chiqaruvchi hushyor agent sifatida ko'radi. U Shumpeterga zid ravishda innovatsiyadan ko'ra "bozor ogohlighi" (alertness) tushunchasiga urg'u beradi. Tadbirkor — bu bozor imkoniyatlarini ilg'ab, ulardan to'g'ri foydalanish jarayonini yo'lga qo'ya oladigan shaxsdir. U aniqlanmagan imkoniyatlarni izlab topadi, ilg'aydi va o'z kapitali bilan bozorga kiradi. Kirzner tadbirkorning bozordagi imkoniyatlarni boshqalardan oldin sezish qobiliyatini "bozor ogohlighi" deb ataydi va uni tadbirkorlikni vujudga keltiradigan muhim omil sifatida ko'rsatadi. Uningcha, tadbirkor mavjud resurslar, narxlar, ehtiyojlar hamda taklif va talab o'rtasidagi nomutanosiblikni ilg'ab, daromad olish uchun imkoniyatni ko'radi va unga kapital kiritadi.

Israel Kirzner qarashlariga ko'ra, "bozor ogohlighi" (market alertness) tushunchasining asosiy jihatlari — hushyorlik, tahlil qilish qobiliyati va bozor muvozanatini tiklashga xizmat qiluvchi faoliyatdir. Hushyorlik, ya'ni alertness, tadbirkorga yangi imkoniyatlarni izlash majburiyatini yuklamaydi, aksincha, u bozordagi noaniqlik va nomuvofiqlikni sezish qobiliyatini bildiradi. Ogoh tadbirkor bozor muhitidagi ogohlantiruvchi signallar — narxlar tebranishi, iste'molchilarning xatti-harakatidagi o'zgarishlar, raqobatchilarning strategiyasidagi siljishlarni — to'g'ri tahlil qilib, ulardan samarali foydalanadi. Bu esa resurslarni qayta taqsimlash orqali moddiy qiymat yaratish va bozor muvozanatiga yaqinlashishga xizmat qiladi⁶.

Bozor ogohlighi — bu shunchaki axborotga ega bo'lish emas, balki ushbu axborot ichidan iqtisodiy imkoniyatni ilg'ay olish qobiliyatidir. Kirznerga ko'ra, aynan mana shu fazilat erkin bozor iqtisodiyotidagi tadbirkorning asosiy kuchi va ustunligini belgilaydi.

"Innovatsiya va tadbirkorlik" asari muallifi, iqtisodchi Peter Druker esa tadbirkorlikning tug'ma iste'dod emasligini, balki o'rganiladigan va amaliyotda qo'llaniladigan intizomli faoliyat turi ekanligini asoslab bergan. U innovatsiya va tadbirkorlikni bir butun tizim sifatida ko'radi va uni biznes ochish bilangina emas, balki mavjud resurslarga yangi qiymat yaratishga yo'naltirilgan tizimli va maqsadli faoliyat deb talqin etadi.

Druker fikricha, tadbirkorlik — bu nafaqat ichki istak yoki shaxsiy salohiyat, balki puxta rejalashtirilgan ish tartibi, halol mehnat va keng qamrovli bilim asosida shakllanadigan intizomli faoliyatdir. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday inson, agar zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lsa, tadbirkor bo'lishi mumkin. Druker tadbirkorlikni har doim yangilik bilan bog'liq jarayon sifatida baholaydi. Unga ko'ra, tadbirkor yuzaga kelgan muammoga noan'anaviy yondashuv orqali yechim topadi, yangi g'oyalarni ilgari suradi va ularni amaliyotda qo'llaydi.

Shu sababli tadbirkorlik faqat savdo-sotiq sohasi bilan cheklanmaydi. U sog'liqni saqlash, ta'lim, jamoat boshqaruvi kabi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ham yuqori samaradorlikka olib keladi. Bu esa erkin bozor munosabatlarining to'laqonli shakllanishiga xizmat qiladi.

Bozordagi imkoniyatlarni anglay oladigan tadbirkorlar imkoniyat yaratmaydi, balki mavjud imkoniyatni ilg'ab, undan foydalanadi. Druker tadbirkorlikdagi riskni inkor etmaydi, balki uni rejalashtirish, tahlil qilish va tezkor harakatlar orqali boshqarish mumkinligini ta'kidlaydi. Bozor munosabatlariga yangi kirib kelayotgan g'oyalar avval sinovdan o'tkazilishi lozim; sinovsiz va rejasiz tavakkalchilik esa xatolarga olib keladi.

Xatolarni boshqarish esa qaror qabul qilish yoki faoliyat yuritish jarayonida yuzaga keladigan noto'g'ri harakatlar, noaniqlik yoki kutilmagan natijalarning salbiy oqibatlarini aniqlash, baholash va minimallashtirishga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatidir. Bu jarayon reja, ehtimollik, zaxira strategiyalar va nazorat mexanizmlari

5 Knight, Frank H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Boston: Houghton Mifflin Company. (Reprint: Knight, F.H. (2006). Risk, Uncertainty and Profit. Dover Publications.) -p. 311.

6 Kirzner, Israel M. Competition and Entrepreneurship. Chicago: University of Chicago Press. 1973, p. 39–42



orqali amalga oshiriladi. Nomuvofiq maqsadlar yoki risklar imkon qadar erta aniqlanib, ularning biznes yoki loyiha faoliyatiga salbiy ta'siri kamaytiriladi. Shu orqali tadbirkor xatolarni boshqarishga erishadi.

Amerikalik psixolog David McClelland esa tadbirkorlik psixologiyasiga oid muhim nazariy yondashuv muallifi hisoblanadi. U tadbirkorlikni shaxsiy motivatsiyaga asoslangan holda tahlil qilgan. Shu sababli uning yondashuvi iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-psixologik asosda qurilgan. U asoslab bergan "Yutuqqa erishish ehtiyoji" nazariyasiga ko'ra, tadbirkorlar o'z faoliyatini faqat daromad uchun emas, balki maqsadga erishish ehtiyoji asosida amalga oshiradilar. Ular ichki harakatlantiruvchi kuch — yutuqqa bo'lgan intilish orqali natijaga erishadilar.

Shaxslar yuqori darajadagi yutuqqa ehtiyoj sezganlari sababli o'z oldilariga murakkab, ammo erishilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yadilar, tavakkalni tahlil asosida qabul qiladilar va o'z mehnat natijalarini baholashni istaydilar.

McClelland tadbirkorlikni psixologik hodisa sifatida tahlil qilib, o'z g'oyasiga ishongan, yangilikka ochiq, o'zini sinab ko'rishga tayyor, foyda beradigan xavfni tanlaydigan, mustaqil ishlashni, o'z harakatlari ustidan nazoratni qo'lga olishni xohlovchi hamda iqtisodiy manfaatlarni qondira oladigan shaxs sifatida tasvirlaydi. U insonda yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishda ta'lim va ijtimoiy muhitning muhim o'rni borligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyat iqtisodiy o'sishga muhtoj bo'lgan, maqsad sari qat'iyat bilan harakat qiluvchi insonlarni tarbiyalashi orqali faol tadbirkorlar qatlamini shakllantiradi.

Tadbirkorlik — bu nafaqat foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat, balki ijtimoiy tizim bilan uzviy bog'langan shaxsiy tashabbusdir. Shu bois tadbirkorga jamiyatdagi ehtiyojlar, qadriyatlar, madaniyat va psixologik muhitni chuqur anglab, ularga mos yechimlar ishlab chiqadigan shaxs sifatida qarash lozim.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvga ko'ra, shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishida ichki motivatsiya muhim hisoblanadi. Bunga shaxsning o'zini namoyon qilish istagi, mustaqil bo'lish ehtiyoji, ijtimoiy maqomga erishish yoki oilaviy barqarorlikni ta'minlash kabi omillar kiradi. Demak, tadbirkorlik — shaxsning o'z oldiga aniq va yo'naltirilgan maqsadlarni qo'yishi va unga erishishga qaratilgan intilishining mahsulidir. Tadbirkor noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishdan qo'rqmaydigan, lekin tavakkalni asosli baholay oladigan shaxs bo'lib, uning "psixologik barqarorligi" iqtisodiy muvaffaqiyatning asosiy omili sanaladi. Psixologik barqarorlik — bu tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy stress, bosim va xavf sharoitida o'zini tuta olish qobiliyatidir va u muhim kompetensiya sifatida qaraladi.

Tadbirkor psixologik jihatdan yangilik yaratishga qodir, kreativ fikrlovchi va o'zining noan'anaviy harakatlari orqali jamiyatda o'zgarishlar qilishga qodir bo'lgan shaxsdir. U liderlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik va atrof-muhitni to'g'ri anglay olish bilan bog'liq insoniy fazilatlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Tadbirkorlik faoliyatidagi muhim jihatlardan biri — jamiyatdagi qadriyatlar, an'analar va normalarning unga bo'lgan munosabati hisoblanadi. Masalan, agar jamiyatda tadbirkorlik qadrlansa va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlansa, bu keng jamoatchilik orasida tadbirkorlik faoliyatiga rag'bat uyg'otadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, oilaviy muhit va muvaffaqiyatli tadbirkorlar tajribasi jamiyatda tadbirkorlar tabaqasining shakllanishida psixologik rag'batlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Demak, tadbirkorlikni ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish bizga uni nafaqat daromad olish vositasi, balki shaxsiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish vositasi sifatida ko'rish imkonini beradi. Tadbirkor — bu ijtimoiy ehtiyojni anglay oladigan, riskni baholay oladigan, innovatsiyaga ochiq va ichki motivatsiyaga ega lider shaxsdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik tushunchasiga falsafiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan ta'rif berar ekanmiz, avvalo, bu insonning yaratuvchanlik, erkinlik va mas'uliyat asosida iqtisodiy qadriyatlar yaratish faoliyati bo'lib, u erkin tanlov, innovatsiya va mulkiy mustaqillik bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Falsafiy yondashuvda tadbirkorlik — bu insonning o'z mohiyatini ro'yobga chiqarish, ya'ni erkin subyekt sifatida iqtisodiy muhitda o'zini tasdiqlash vositasidir.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa tadbirkor — bu resurslarni samarali boshqarish, yangi qiymat yaratish va foyda olishni maqsad qilgan, bozor talablariga mos ravishda risk va noaniqlikni boshqarishga qodir iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisidir.

Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, tadbirkorlik — bu shaxsning ichki motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va riskka tayyorligi asosida jamiyat ehtiyojlariga mos innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy qilish faoliyatidir. Psixologik jihatdan yuqori motivatsiyaga ega, o'z-o'zini boshqara oladigan, tashabbuskor va muvaffaqiyatga intiluvchi shaxs — tadbirkor sifatida qaraladi.

Tadbirkorlik — bu ijtimoiy dinamikani harakatga keltiruvchi omil bo'lib, bandlik yaratish, ijtimoiy farovonlikni oshirish va ijtimoiy tizimlarda moslashuvchanlikni ta'minlash orqali o'zining ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi. Tadbirkorlik — bu insonning yaratuvchanlik, erkinlik, mas'uliyat va ichki motivatsiyaga tayangan holda iqtisodiy,



ijtimoiy va psixologik resurslarni safarbar qilib, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, yangi qadriyatlar yaratish va risklarni boshqarish orqali foyda olishga qaratilgan faoliyatdir. Bu faoliyat mulkiy mustaqillik, bozor talablariga moslashuvchanlik va jamiyat farovonligiga hissa qo'shish bilan xarakterlanadi.

Xullas, tadbirkorlikni — bozorda qondirilmagan ehtiyojni aniqlash va uni qondirishning iqtisodiy jihatdan eng samarali, innovatsion echimlarga asoslangan harakatlar yig'indisi sifatida ta'riflash maqsadga muvofiqdir. Ushbu faoliyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch egasini — tadbirkor deb atash mumkin va bu ta'rif yuqoridagi iqtisodchi olimlarning tadbirkorlik hamda “tadbirkor” atamasiga bergan nazariy yondashuvlarining soddalashtirilgan, amaliy mazmunga ega izohi sifatida qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Локк Дж. Два трактата о правлении. — Москва: Мысль, 1988. — 478 с. (Inglizcha asl nomi: Locke, J. Two Treatises of Government.)
2. Локк Дж. Опыт о человеческом разумении. — Москва: Мысль, 1985. — 640 с. (Inglizcha asl nomi: Locke, J. An Essay Concerning Human Understanding.)
3. Спиноза Б. Этика. — Москва: Наука, 1994. — 379 с. (Asli: Spinoza, B. Ethica Ordine Geometrico Demonstrata.)
4. Гроций Г. О праве войны и мира. — Москва: Ладомир, 1994. — 568 с. (Asli: Grotius, H. De jure belli ac pacis.)
5. Say, J.-B. A Treatise on Political Economy. — Philadelphia: Grigg & Elliot, 1855. — 496 p. (Fransuzchadan ingliz tiliga tarjima qilingan nashr.)
6. Marshall, A. Principles of Economics. — London: Macmillan and Co., Ltd., 1890. — 870 p.
7. Knight, F. H. Risk, Uncertainty and Profit. — Boston: Houghton Mifflin, 1921. — 381p. (Reprint: New York: Harper & Row, 1964.)
8. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. — 255 p. (Asli 1911-yilda nemis tilida nashr qilingan.)
9. McClelland, D. C. The Achieving Society. — Princeton, NJ: Van Nostrand, 1961. — 456 p.
10. Kirzner, I. M. Competition and Entrepreneurship. — Chicago: University of Chicago Press, 1973. — 256 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100